

**BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISH DAVOMIDA O‘QUVCHILARNING
MANTIQUIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrası o‘qituvchisi
Quvanov Zahriddin*

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish masalasining ahamiyati va dolzarbligi yoritilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish usullari ko‘rsatilgan. Maqola oxirida xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar

Ta’lim-tarbiya jarayoni, mexanizm, motivlar, mantiqiy, fikrlash

Ma’lumki, hozirda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning diqqat markazida birinchi o‘rinda bola ta’lim va tarbiyasi turadi. Hurfikrlilik, insonparvarlik, yuksak axloqiy va ijodkorlik fazilatlari inson madaniyatining darajasini belgilovchi fazilatlardir. Har bir inson shaxs sifatida shakllanar ekan, unda o‘z kuchiga ishonadigan, o‘zida mavjud bo‘lgan potensial imkoniyatlarni amalga oshira oladigan ijodkorlik fazilatlarni yuzaga chiqaruvchi holatlar sodir bo‘ladi. Hozirgi ijtimoiy-madaniy hayotda ta’limni insonparvarlashtirish jamiyatimizda yashayotgan insonlarning pedagogik-psixologik fikrlashlariga bog‘liqdir. Shaxsning fikrlashi – bu insonga xos tushuncha bo‘lib, jamiyatda sodir bo‘layotgan yangiliklar va o‘zgarishlarga faol kirisha olish munosabati bilan belgilanadi. Inson faqat erkin fikr egasi sifatida qadrlanadi. Bolaning oldindan shakllanmagan dunyoqarashi asta-sekin uning irodasi, tasavvuri, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi nozik mexanizmlari rivojlana borishi asosida tarkib topadi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarining ahamiyatli tomoni shundan iboratki, u insonning moddiy-ma’naviy qadriyatlarini o‘zlashtirishga, madaniyat darajasini rivojlantirishga chorlaydi. Ta’lim va tarbiyaga ijodiy yondashuv asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish uchun har bir inson sub'ekt sifatida qaralib uning hayotiy faoliyati ehtiyojlari qondiriladi. Hozirgi vaqtda shaxs ijodkorligiga e’tibor, ijtimoiy talab kuchaymoqda. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish umumta’lim maktablarining dolzarb masalalaridan biridir¹.

¹ O‘QUVCHILAR MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARINING AHAMIYATI 1Xudoynazarov Egambergan Madraximovich 2Urazova Nasiba Urazboyevna 1PhD, Ma’mun universiteti NTM Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti katta o‘qituvchisi, Urganch 2A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti magistranti, Toshkent

Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning bilish faoliyatini o'qitish bilan bir qatorda, individual va kichik guruhlarda o'qitishni tashkil etish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etilganda o'quvchilar o'quv materialini mustaqil o'zlashtiradilar, ulaming aqliy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish darajasi hisobga olingan holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini mustaqil bajaradi va o'z bilish faoliyatining subyektiga aylanadi. Biologiyadan masala va mashqlarni nafaqat yangi materialni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini nazorat qilishda, balki darsning boshqa bosqichlarida ham foydalanish mumkin. Dastlab olingan bilimlarni mustahkamlashda. Masala yechish davomida o'quvchilarda darsda olgan bilimlarning qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi. O'zlashtirilgan bilimlarga esa ongli yondashiladi va chuqurlashadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'madi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'r-ganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40—45 daqiqalik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o'qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z- o'zidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqazo qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda uzviylik tamoiliga asoslangan tizimli yondoshuvni oqilona qo'llash zarur. Biz mantiqiy rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan boshlang'ich sinflar uchun sinfdan tashqari ish topshiriqlar to'plamini ishlab chiqdik. Bu topshiriqlar o'zimiz tanlagan muammoning samarali yechimini ta'minlovchi manba deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. 479 с. 28
2. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Истиклол, 1994. -60 бет. 60
3. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400 б.
4. Савенков А.И. Маленькие исследователи в реальной жизни // Дошкольное образование. № 7-2004. С. 6 -19.
5. Худойназаров Е.М., Yarmetov J.R. Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar /O'quv qo'llanma/ – T: Nodirabegim, 2021. – 182 b